

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

**MAXSUS SON
(2021-yil, dekabr)**

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Alijon HAMROEV. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students..... | 7 |
| Matlab TILAVOVA. Ta'lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari..... | 13 |
| G'ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.TEMIROVA. Markaziy osiyolik allomalarning tabiat haqidagi asarlaridan boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'qitishda foydalanish | 18 |
| Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA. Ikki sonning yig'indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar | 20 |
| Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA. Ko'paytirish va bo'lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar..... | 24 |
| Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA. Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo... .. | 28 |
| Nigora ADIZOVA. Qiziqmachoqlarda hayot sabog'ining o'ziga xos talqini..... | 30 |
| Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA. "Qiziqmachoq" atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari | 33 |
| Mohinur SAIDOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining masofaviy ta'limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari | 38 |
| Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish..... | 42 |
| Nodira ADIZOVA. Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida)..... | 47 |
| Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO'LATOVA. Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi | 49 |
| Shoira BOBOYEVA. Metodikada ona tili ta'limini modellashtirishga innovatsion yondashuv | 51 |
| Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА. С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии | 58 |
| Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА. Влияние международного исследования girls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника | 64 |
| Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА. Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей | 68 |
| Mehriniso HAKIMOVA. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta'minlashga doir metodik ta'minot..... | 72 |
| Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА. "Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши" мавзусини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги | 79 |
| Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА. Преподавание биологии в школе | 86 |
| Shoira QURBONOVA. Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish | 89 |
| Gavhar SAIDOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o'lchash malakalarini hosil qilish | 92 |
| Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayonning mazmuni | 94 |
| Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari | 97 |
| Yulduz Pulatova. Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons | 101 |
| Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA. Maktab o'quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlar | 107 |
| Adiba BAHRONOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari | 110 |
| Saodat QODIROVA. Qadimiy maqollar | 113 |
| Dilshod DAVRONOV. Zamon bilan hamnafas yashagan alloma | 115 |
| Yulduz NUROVA. Etnologiya va etnografiya munosabati | 118 |
| Malika XAYDAROVA. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari | 122 |
| Nodirabegim RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilarga figura yuzi tushunchasini o'rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish..... | 125 |

| | |
|---|-----|
| Nodirabegim RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli | 128 |
| Yusufzoda Shabnam. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish | 132 |
| Mardon YARASHOV. Boshlang'ich ta'limning dars jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish vositalari..... | 135 |
| Dilora SIDIQOVA. Masofaviy ta'lim sharoitida "matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asosi | 138 |
| O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni takomillashtirish.. | 142 |
| Umida TOG'AYEVA. Loyihaviy ta'lim vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish yo'llari..... | 146 |
| Gavhar RUSTAMOVA. O'zbek xalq ertaklarida daraxtlar obrazi bilan bog'liq epik talqinlar | 150 |
| Feruza ABDULLAYEVA. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish | 154 |
| Feruza ABDULLAYEVA. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli..... | 156 |
| Dilnoza XAYRULLAYEVA. 4-sinf ona tili darslarida gap bo'laklarining o'qitilishi | 159 |
| Mohichehra IBROHIMOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tishda "day game"dan foydalanish | 163 |
| Mahliyo HAYDARQULOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning o'RNI..... | 166 |
| Madina OZODOVA. Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari | 170 |
| Nigora RO'ZIYEVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulush va kasr tushunchalariga doir masalalarni tushuntirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish | 172 |
| Shahlo SAPAROVA. The classification of Elbek poems in 5 directions | 175 |
| "Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari | 178 |

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA SINTAKTIK KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHITISH

Maqolada boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik tushunchalarning mazmun-mohiyati va o'quvchilarda shakllantiriladigan sintaktik tushunchalar haqida fikr yuritilgan. 3-4-sinflarda o'rgatiladigan sintaktik tushunchalarning qoidalar tizimi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *nutq, boshlang'ich sinf, ona tili va o'qish savodxonligi, sintaksis, gap, gap bo'lagi, so'z birikmasi, sintaktik kompetensiya, lingvistik kompetensiya.*

В статье рассматривается содержание синтаксических понятий, изучаемых в начальной школе, и синтаксических понятий, формируемых у учащихся. Проанализирована система правил синтаксических понятий, преподаваемых в 3-4 классах.

Ключевые слова: *речь, начальная школа, родной язык и грамотность чтения, синтаксис, предложение, часть речи, фраза, синтаксическая компетенция, языковая компетенция.*

The article discusses the content of syntactic concepts studied in primary school and the syntactic concepts formed in students. The rules system of syntactic concepts taught in grades 3-4 is analyzed.

Key words: *speech, elementary school, native language and reading literacy, syntax, sentence, part of speech, phrase, syntactic competence, linguistic competence.*

Kirish. Yurtimizda 2017-yil Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilganidan beri nafaqat maktabgacha, balki umumiy o'rta ta'lim tizimida mavjud bo'lgan bir qancha dolzarb muammolar o'z yechimini topmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi bolalarning o'z imkoniyatlarini, yashirin iste'dodini namoyon qilishga keng yo'l ochdi. Qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, yaratilayotgan o'quv adabiyotlarining o'z samarasi o'laroq, boshlang'ich sinfga qabul qilinayotgan bolalarda nutq va tafakkurning ancha rivojlanganligini, dunyoqarashining kengayib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning og'zaki nutqini o'stirish, lug'at boyligini kengaytirish vazifasi ustuvor bo'lib, boshlang'ich ta'limda tizimli ravishda davom ettiriladi.

Asosiy qism. Bolaning rivojlanish bosqichlarida nutqi turli darajada rivojlanib, yangi so'zlar bilan boyib bordi. U dastlab narsalarning nomi, rangi va shaklini idrok qilib, o'z nutqida ifodalasa, keyinchalik turli xil ko'rinishdagi so'z birikmalari tuza boshlaydi. Yoshi ulg'aygan sari esa o'z fikrini kengaytirib, murakkab sodda gaplar orqali bayon qiladi. Asta-sekin u o'z fikrini bayon qilish, atrofdegilar bilan muloqot jarayonida qator sintaktik tushunchalardan foydalanadi. Aytaylik, bola dastlab "gul" so'zini nutqida ishlatasa, keyin uni "qizil gul" shaklidagi so'z birikmasi, "chiqoyli qizil gul" shaklidagi murakkab so'z birikmasi ko'rinishida tasvirlaydi. Bora-bora shu so'z birikmalari ishtirokida sodda va murakkab gaplar tuzadi.

So'z birikmasi, murakkab so'z birikmasi, sodda gap, sodda murakkab gap, qo'shma gap kabilar sintaktik tushunchalar bo'lib, bolaning turli yosh davrlarida nutqida o'z ifodasini topib boradi. Bolalar sintaktik tushunchalar, ularning mazmun-mohiyatini o'rganish orqali sintaktik kompetensiyani egallaydilar. Shunday ekan eng avvalo "sintaksis" tushunchasining mazmun-mohiyatiga e'tibor beraylik.

Sintaksis yunoncha "syntaxis" so'zidan olingan bo'lib, "tuzilma", "tartib", "birikma" degan ma'noni bildiradi. Sintaksis grammatikaning so'zlarni so'z birikmalari va gaplarga, sodda gaplarni esa qo'shma gaplarga birikish usullarini o'rganuvchi, so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma'nosi, o'zaro ta'sirlashuvi hamda vazifalarini tadqiq etuvchi bo'limi. Sintaksis termini so'z birikmalari va gaplarni hamda ularning tilda qo'llanishini qamrab oluvchi grammatik qurilish ma'nosini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Tilning grammatik qurilishida sintaksis juda katta ahamiyatga ega, chunki uning tarkibiga bevosita kishilarning muomala muloqot jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi sodda gap va qo'shma gap kabi til birliklari kiradi.

So'z birikmalari va gaplar tilning asosiy sintaktik birliklari va ularning har biri o'z ichki xususiyatlariga ega. Gap, gap bo'lagi, so'z birikmasi sintaksisning asosiy birliklaridir. Shunday ekan, har bir tushunchaning mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Gap - muayyan til qonuniyatiga ko'ra grammatik va intonatsiyaviy shakllangan nutq birligi. Fikr shakllanishi va ifodalanishining asosiy vositasi.

Gap tushunchasi o'zbek tilining izohli lug'atida so'zlar orqali bayon etilgan fikr, so'z, nutq; nutq vositasida ifodalangan fikr, o'y, mulohaza; ma'lumot, shingil axborot, xabar, mish-mish tarzida ta'riflangan [6].

Gap bo'laklari - ran tuzilmasida muayyan so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bir sintaktik vazifani bajaruvchi so'z va so'z birikmalari. Gap bo'laklari bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi. Bosh bo'laklar ega va kesimga, ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi, holga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda gap bo'laklari bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar tarzida o'rgatiladi. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol haqida batafsil ma'lumot berilmaydi. Faqat ikkinchi darajali bo'laklar gapning mazmunini yanada aniqlab, to'ldirib kelishi o'rgatiladi.

So'z birikmasi - ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning tobe grammatik aloqa (moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv) asosida birikishi natijasida hosil bo'lgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan sintaktik tuzilma - nutq birligi. Har qanday so'z birikmasi birdan ortiq mustaqil so'zning birikuvidan hosil bo'ladi, tuziladi va 2 qismdan - hokim va tobe qismdan tashkil topadi.

So'z birikmasi komponentlarining tarkibiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Komponentlarining har biri bir so'z shakliga teng bo'lgan so'z birikmasi sodda so'z birikmasi hisoblanadi. Komponentlari yoki ulardan biri birdan ortiq so'zdan, so'z birikmasidan iborat bo'lgan birikmalar murakkab so'z birikmasi deyiladi [7].

Yuqorida keltirilgan sintaktik tushunchalarning ta'riflari O'zbekiston milliy ensklopediyasida keltirilgan bo'lib, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga bunday murakkab ko'rinishdagi qoidalar o'rgatilmaydi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni sintaksis termini bilan tanishtirilmaydi. Sintaksis bo'limining nutq, matn, gap va uning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, bosh bo'laklar, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar, so'z birikmasi kabi tushunchalar sodda, muarakkab bo'lmagan qoidalar asosida o'rgatiladi. Shunday ekan biz sintaktik kompetensiya va tushunchalarning boshlang'ich sinflarda o'rganilishini tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sintaktik kompetensiya – og'zaki va yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish qobiliyati.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarda sintaktik tushunchalarni o'rgatish ancha murakkab bo'lib, tizimli ravishda ish olib borishni talab qiladi.

Bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitib borish, har darsda tizimli ravishda amalga oshirish ularning sintktik tushunchalarni osonroq va chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Savod o'rgatish davridan boshlab o'quvchilar sintaktik tushunchalar bilan amaliy tarzda tanishib borishadi. O'quvchilar harflarni o'rganish jarayonida sodda gaplar va kichik hajmli matnlarni o'qib tahlil qilishadi. Og'zaki ravishda o'zlari ham gaplar tuzishadi. Gapning kim yoki nima haqida ekanligi, u haqida nima deyilganini tahlil qilishadi. Bunday tarzda tahlillar ta'limning keyingi bosqichlarida gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni o'rganishga tayyorlov mashqi bo'lib xizmat qiladi.

Muhokamalar va natijalar. Yangi tahrirdagi umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturga asosan ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nazarda tutilgan. Milliy dasturga binoan boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan sintaktik kompetensiyalar quyidagi jadvalda keltirilgan [6]:

1-jadval. Boshlang'ich sinflarda shakllantiriladigan sintaktik kompetensiyalar


| Sinflar | Shakllantiriladigan sintaktik kompetensiyalar |
|---------|---|
| 1-sinf | So'zlarni o'zaro biriktirgan holda gap hosil qila olish; gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay olish va nutqda to'g'ri qo'llay olish. |
| 2-sinf | so'z va gapni o'zaro farqlash; so'zlarni o'zaro biriktirgan holda gap hosil qila olish; gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlash va imlosiga rioya qilish. |
| 3-sinf | So'zlarni o'zaro to'g'ri biriktirgan holda gap hosil qila olish; gap v a uning qismlarini farqlash; so'z, gap va matnning xususiyatlarini bilish, matn hosil qilish qoidalariga rioya qilgan holda matn yarata olish. |
| 4-sinf | So'zlarni o'zaro to'g'ri biriktirgan holda gap hosil qila olish; gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini bilish, ular imlosiga rioya qilish; gap bo'laklarini farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish; so'z, gap va matnning xususiyatlarini bilish, qoidalarga rioya qilgan holda matn yarata olish. |

Milliy o'quv dasturiga ko'ra boshlang'ich sinflarda asosiy lingvistik tushunchalar qoidalardan voz kechilgan holda, amaliy topshiriqlarni bajarish orqali o'rgatiladi. 2021-2022-o'quv yilida 1- va 2-sinflarda amalda bo'lgan ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi mantlarni o'quvchilar fonetik, orfografik, orfoepik, morfologik, morfemik, sintaktik, semantik jihatdan to'liq tahlil qilib, mustaqil xulosa chiqarishadi. Qayta xotirlash, qizman ijodiy va ijodiy tipdagi topshiriqlar orqali ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatiladi.

3- va 4-sinflarda esa sintaktik tushunchalarning qoidalari quyidagi tizimda o'rgatiladi:

3-sinf.

1. Nutq – gaplar orqali bildirilgan fikr. Nutq gaplardan, gap esa soʻzlardan tuziladi.



2.

3. Matnga sarlavha topish mumkin.

4. Gap tugallangan fikrni bildiradi. Yozuvda har bir gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi, oxiriga tinish belgi qoʻyiladi.

5. Biror narsa voqea haqida xabarni bildirgan gap darak gap deyiladi. Darak gap oxirida ovoz pasayadi. Darak gapning oxiriga nuqta (.) qoʻyiladi.

6. Biror narsa haqida soʻrash maqsadini bildirgan gap soʻroq gap deyiladi. Soʻroq gapning oxiriga soʻroq (?) belgisi qoʻyiladi.

7. Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar buyruq gap deyiladi. Buyruq gapning oxiriga nuqta (.) qoʻyiladi.

8. Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap his-hayajon gap deyiladi. His-hayajon gapning oxiriga undov (!) belgisi qoʻyiladi.

9. Gapda soʻzlar maʼnosiga qarab, maʼlum bir vazifani bajaradi. Mustaqil maʼnoli soʻz gapning boʻlagi boʻlib keladi: *mehnat insonni ulugʻlaydi* gapida fikrni oʻziga qaratayotgan boʻlak *mehnat* soʻzi boʻlsa, u haqida fikr bildiruvchi boʻlak *ulugʻlaydi* soʻzidir. Har ikki boʻlak gapning asosini tashkil etadi: *mehnat ulugʻlaydi*. Gapdagi boshqa soʻzlar gapning asosiy mazmunini toʻldirish uchun xizmat qiladi: *insonni ulugʻlaydi*.

10. Gapning asosiy mazmunini tashkil etgan gap boʻlagi **bosh boʻlaklardir**. Asosiy mazmunni toʻldirish uchun qoʻllaniladigan boʻlaklar **ikkinchi darajali boʻlaklardir**. *Gʻayratli bola charchashni bilmaydi*. *Bola, bilmaydi* – bosh boʻlaklar; *gʻayratli, charchashni* – ikkinchi darajali boʻlaklar.

11. Ega va kesim gapning **bosh boʻlaklaridir**. Ular birgalikda gapning asosini tashkil etadi. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildiradigan boʻlak **ega** deb ataladi. Gapning egasi haqida nima deyilganini bildirgan boʻlak **kesim** deyiladi. Kesim gapning boshqa boʻlaklarini oʻz atrofiga birlashtiradi.

Bolalar maktabda oʻqiydilar. Bu gapda bosh boʻlak ikkita: *kimlar?* Bolalar (ega), *nima qiladilar?* *Oʻqiydilar* (kesim). *Bolalar oʻqiydilar* gapi bolalarning mashgʻuloti (oʻqishi) haqida xabar bildirayapti.

12. **Kesim** *nima qildi? nima qiladilar? nima qilyapti? nima qilyaptilar? nima qiladi? nima qiladilar? nima qilmoqchi? nima qilmoqchilar?* soʻroqlariga javob boʻladi.

Ega *kim? kimlar? nima? nimalar?* soʻroqlariga javob boʻladi.

13. Gapning asosiy mazmunini bosh boʻlaklardan anglash mumkin. Gapdagi fikr yana ham toʻliqroq boʻlishi uchun boshqa soʻzlar ham ishtirok etadi.

Bunday soʻzlar **ikkinchi darajali boʻlaklardir**. Bular, odatda, bosh boʻlaklar bilan bogʻlanib, gapning mazmunini toʻldiradi.

Ikkinchi darajali boʻlaklar ham gapda maʼlum bir soʻroqlarga javob boʻladi. *Yosh qoʻshiqchilar tanlovga puxta tayyorlandilar*.

1. Bosh boʻlaklar: (kimlar?) *Qoʻshiqchilar* – ega, (nima qildilar?) *tayyorlandilar* – kesim.

2. Ikkinchi darajali boʻlaklar: qanday qoʻshiqchilar? – *yosh qoʻshiqchilar*. Nimaga tayyorlandilar? – *tanlovga tayyorlandilar*. Qanday tayyorlandilar? – *puxta tayyorlandilar*.

14. Gapda soʻzlar oʻzaro mazmunan bogʻlanadi. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi soʻroqlar yordamida aniqlanadi [9].

4-sinf.

1. Gapda soʻzlar oʻzaro bogʻlanadi. Ega kesimga bogʻlanadi. Ikkinchi darajali boʻlaklar kesimga yoki egaga bogʻlanadi.


2. Gapda soʻzlar oʻzaro maʼno jihatdan bogʻlanadi.

3. Matn nutqning yozma shaklidir. Matnni qismlarga boʻlish, unga sarlavha qoʻyish, reja tuzish mumkin [10].

Xulosa. Oʻquvchilar 3-4-sinflarda yuqorida keltirgan qoidalarni oʻrganishadi, turli xil mashqlarni bajarish orqali sintaktik kompetensiyani egallab borishadi. Oʻquvchilarda sintaktik kompetensiyalarni shaakllantirishda ijodiy topshiriqlarning oʻrniatta.

Adabiyotlar

1. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – С. 580-587.
2. Olloqova O. M. ONA TILI DARSLARIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – С. 1025-1029.
3. Mamanazarovna O. U., Gulnoza M. USE OF DIDACTIC GAMES IN MOTHER TONGUE LESSONS. – 2021.
4. Sayfullaev G., Alimova L., Ollokova U. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us //Bridge to science: research works. – 2019. – С. 206-208.
5. OLLOQOVA O. ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №.
6. Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan milliy o'quv dasturi. –Т., 2021.
7. O'zbekiston milliy ensklopediyasi (S harfi). –Т.: “O'zbekiston milliy ensklopediyasi”.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati (S harfi). –Т.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
9. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Yo'ldosheva Sh. Ona tili (3-sinf darsligi). –Т.: “O'qituvchi”, 2019. -152 bet.
10. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf darsligi). –Т.: “O'qituvchi”, 2020. -160 bet.
11. Tog'ayeva U. SCIENTIFIC-THEORETICAL BASES OF USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING METHODS OF MOTHER TONGUE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
12. Tog'ayeva U. IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
13. Tog'ayeva U. “ONA TILI O'QITISH METODIKASI” MODULINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.
14. Sidiqova D. Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim va loyihalash texnologiyasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.
15. Sidikova S. D. Theoretical and didactic principles of distance learning //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 541-548.
16. Shavkatovna S. D. THE IMPORTANCE OF DISTANCE LEARNING IN THE TEACHING OF" METHODS OF TEACHING MATHEMATICS". – 2021.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

**PEDAGOGIK
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik
jurnal**

2021-yil maxsuus son

**2001-yil iyul oyidan
chiqa boshlagan.**

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:

Alijon HAMROYEV.

Musahhah: Muhiddin BAFAYEV.

Muharrir: O‘g‘iljon OLLOQOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 10.01.2022

Bosmaxonaga topshirish vaqti

14.01.2022

Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog‘i – 22,5

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 10

Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriiddin Salim Buxoriy” MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Buxoro shahri

M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.